

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

BOLA PSIXIK RIVOJLANISHIDA FAOLIYATNING O'RNI

Maqsuda Norbosheva,

Termiz DU katta o'qituvchisi

For citation: Maqsuda Norbosheva. The role of activity in the mental development of preschool children, Innovations in Pedagogics and Psychology, 2019, 2 vol., issue 2, pp. 28-31



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2018-2-5>

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishida faoliyatning o'rni masalasi, mashhur rus psixologlari A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasi, L.S.Vigotskiyning bola psixik taraqqiyotiga oid ilmiy qarashlari haqida, shuningdek bolalar psixik rivojlanishida faoliyatning va muloqotning o'rni masalasida bahs yuritilgan.

Калит so'zlar: bola, psixika, rivojlanish, faoliyat, nazariya, operatsiyalar, motiv, maqsad, muhit, ehtiyoj, munosabat.

РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПСИХИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ

Мақсуда Норбошева,

Термезский государственный университет, старший преподаватель

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается роль деятельности в психическом развитии детей дошкольного возраста, теория деятельности великого русского психолога Леонтьева, о научных взглядах Выготского насчёт психического прогресса детей, также о роли общения и деятельности в психическом развитии ребёнка.

Ключевые слова: ребёнок, психика, развития, среда, нужда, деятельность, теория, операции, мотив, цель, отношения.

THE ROLE OF ACTIVITY IN THE MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Maqsuda Norbosheva,

Senior teacher of Termez State University

ANNOTATION

This article discusses the role of activity in the mental development of preschool children, the theory of activity of the great Russian psychologist Leontiev, Vygotsky's scientific views about the mental progress of children, as well as the role of communication and activity in the mental development of the child.

Key words: child, psyche, development, environment, need, activity, theory, operations, motive, goal, relations.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, bola shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv .

Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak.

Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, ta'lim, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.

Bolaning psixik rivojlanishi qanday bo'ladi, u qanday shakllanadi va unga ta'sir etuvchi omillar nimadan iborat?, degan muammo juda qadim zamonlardan beri psixolog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy masalasi bola psixik taraqqiyotini o'rganishdan iborat ekan, bu masalani hal qilishda, uni tushuntirib berishda turli xil qarashlarni o'rganish, tahlil qilish muhimdir. Shundan kelib chiqib, biz bolalar psixik rivojlanishida faoliyatning va muloqotning o'rni masalasida bahs yuritmoqchimiz. Avvalo faoliyat psixologiyasi haqida to'xtalib o'tamiz.

Mashhur rus psixologi, faoliyat nazariyasining asoschilaridan biri Leontyev Aleksey Nikolayevich (1903-1979) ning faoliyat nazariyasi ong va faoliyat birligi tamoyiliga asoslangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, faoliyat sub'ektning predmetli olam bilan bo'lgan ta'sirlashishi jarayoni bo'lib, bu jarayon unga o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat beradi.

Faoliyat - bu faol, maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Predmetlilik faoliyat bilan bog'liq. Ehtiyoj - individdan tashqarida bo'lgan, ammo individ normal hayot kechirishi, shaxsning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan narsalarga nisbatan zaruratni his etish holati.

Motiv ehtiyojning namoyon bo'lish shakli, insonni faoliyatga undaydigan sabab, y'ani faoliyatning nima uchun amalga oshirilayotganligidir. U yoki bu motiv insonni muayyan maqsad sari undaydi. Maqsad -faoliyatdan kutilayotgan natija. Faoliyat quyidagi darajalarga ega bo'ladi:

1. Maxsus faoliyat turlari darajasi.
2. Harakatlar darajasi.
3. Operatsiyalar darajasi.
4. Psixofiziologik funktsiyalar darajasi.

Har qanday faoliyat ma'lum harakatlar ketma-ketligi shaklida amalga oshadi. Harakat maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan ongli faollik, faoliyatning asosiy tarkibiy birligidir. U sharoitga bog'liq ravishda turli usullar bilan amalga oshiriladi. Harakatni amalga oshirish usullari operatsiyalar deb ataladi. Operatsiyalar-avtomatlashgan, odatda anglanmaydigan harakatlardir.

Faoliyat o'z motivini yo'qotishi va harakatga aylanishi, harakat esa maqsadi o'zgarishi bilan operatsiyaga aylanishi mumkin. Muayyan sharoitda harakatdan ko'zlangan maqsad butun faoliyat maqsadidan muhimroq ahamiyat kasb etishi va natijada maqsad motivga aylanib qolishi kuzatiladi. Faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faoliyat inson ongi shakllanishining sharti va omili, ong faolligining shaklidir. A.N.Leontyev o'z izlanishlarida faoliyatning bola taraqqiyotiga ta'siri muammosini ham chuqur o'igangan. Tadqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida "yetakchi faoliyat" tushunchasi shakllandi. Yetakchi faoliyat deganda taraqqiotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o'zgarishlarga sabab bo'luvchi faoliyat tushuniladi.

Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o'yin faoliyatidir. Bir yosh davridan ikkinchisiga o'tishda yetakchi faoliyat turi o'zgaradi, bunda bola faoliyatida maqsadning motivga aylanishi, A.N.Leontyev ta'biri bilan aytganda "motivning maqsadga ko'chishi" kuzatiladi. Yangi faoliyat turi yangi motivlar paydo bo'lgach vujudga keladi.

A.N.Leontyev fikricha, shaxs ikki marta tug'iladi, shaxsning birinchi tug'ulishi maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bu hodisa insonning o'z impulsiv xatti-harakatlarini ijtimoiy meyorlarga bo'sundirishga ilk bora urinishi, motivlar o'rtasida ierarxik munosabatlamning tarkib topa boshlashi bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning ikkinchi tuzulishi o'smirlik davrida yuz beradi. Bu hodisa insonning o'z motivlari va intilishlarini anglashi va ulami bo'sundirishi bilan bog'liqdir. Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganligiga, ta'lim qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bularning hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi.

Shunday qilib, A.N. Leontyevning ilmiy qarashlari jahon psixologiya fani taraqqiyotida ulkan xissa bo'lib qo'shildi, ular bolalar psixologiyasi sohasida ko'plab nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun ham zamin bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

L.S.Vigotskiy (1896-1934) eng mashhur rus psixologi va faylasuflaridan biridir. Olim o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S.Vigotskiyning oliy psixik funktsiyalar shakllanishi haqidagi qonuni-bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi.

L.S.Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funktsiyalar, ya'ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo'lmashligini, ushbu funktsiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko'rsatdi. Aynan L.S.Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.

L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida tashqi-muhitning rolini va bolani muhit bilan effektiv munosabatini, ta'lim bilan rivojlanishining o'zaro munosabatlari, murakkab

psixik funksiyalar ta'lim jarayonida shakllanishini, aktual taraqqiyot bosqichida mustaqil faoliyatni yaqin taraqqiyot bosqichi asosida bo'linishini, psixik taraqqiyot qarama-qarshilik, ziddiyatlaridan iborat ekanligini ko'rsatib berdilar. L.S.Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalarning taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvorning tug'ma shakllari mavjud bo'lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o'zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi.

Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi - ta'limdir. L.S.Vigotskiyning fikricha, ta'lim -psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ta'lim psixik taraqqiyotni o'z ortidan tortadi va uni tezlashtiradi. U kutilgan natijani berishi uchun taraqqiyotdan oldin bo'lishi, ya'ni rivojlanishning eng yaqin zonasiga mo'ljal olishi lozim.

Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o'yindir, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan keyinchalik syujetli, rolli o'yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof muhitni aks ettirishda ishtirok eta boshlaydi. Insonning borliqni in'ikos etishidagi dastlabki urinish harakat orqali namoyon bo'ladi. Harakatlar bolaning tabiatiga, uni qurshab turgan kishilik dunyosiga nisbatan munosabatini, ular to'g'risidagi ilk taassurotlar, sodda tasavvurlar, bilimlarni o'zlashtirishni anglatib keladi. Keyinchalik oddiy harakatlar muayyan ma'no kasb etib, syujetli va rolli o'yinlarga aylanadi.

O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi.

So'z bilan harakatining birikuv natijasida o'yin faoliyat tusini oladi va muayyan ma'no, axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tasniflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga xizmat qiladi

Bog'cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy, intellektual va axloqiy ehtiyojlar yaqqol ko'rina boshlaydi. Agar 1-2 yoshdagi bola uzoq vaqt davomida yolg'iz o'zi biron o'yinchoq bilan mashg'ul bo'lib o'tira olsa, bog'cha yoshdagi (xususan o'rta va katta guruh bolalari) bola bunday yolg'iz o'ynashga toqat qila olmaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqini bir muncha to'laroq o'zlashtirganliklari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Mana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o'z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan jamoa bo'lib o'ynaydilar. Shunday qilib, barcha yoshdagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. 29-bet. Toshkent - 2015 yil (B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Modern trends in the education of children of pre-school age)

2. Леонтьев А.Н. Деятелност. Сознание. Личност. - М.: Политиздат, 1975.- 304 с. (Leontyev A.N. Activity Consciousness. Personality)

3. Nishonova Z.T. "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. - T., 2006 y. (Nishonova Z.T. Teaching manual "Children's psychology")

4. Bolalar psixologiyasining muammolari. Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Zufarova tahriri ostida o'quv qo'llanma. Toshkent-2008 (Problems of Children's Psychology. Teaching book by the candidate of psychological sciences, Associate Professor M.Zufarova)